**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| **“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi** | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | Mirzo Ulug‘bek ilmiy-adabiy merosini tadqiq etish asosida olingan natijalarni maxsus elektron platformada targ‘ib etish<br> | **Tadqiqotning shakli:** Mirzo Ulug‘bek ilmiy-adabiy merosini tadqiq etish asosida olingan natijalarni maxsus elektron platformada targ‘ib etish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyati milliy nuqtayi nazardan yangicha tadqiq etiladi;<br>- “Ulusi arba’i Chingiziy” (“To‘rt ulus tarixi”) asari adabiy-tarixiy manba sifatida o‘rganiladi. Uning “ilm podshosi” sifatidagi faoliyati yoritiladi;<br>- Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan qasidalar ilmiy-adabiy, ijodkor va davr munosabati orqali tahlil etiladi;<br>- Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga doir ma’lumotlar beruvchi adabiy, tarixiy va tazkira asarlari aniqlanadi. Ulug‘bek rahbarligida yaratilgan asarlar tadqiq etiladi;<br>- Xorijlik olimlarning Ulug‘bek ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari jamlanadi;<br>- Loyiha doirasida bajarilgan ishlar Ulug‘bek-temur.uz platformasiga joylanadi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2000 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 4000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**

**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| **“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi** | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | O‘zbekiston musulmonlari idorasi fondida saqlanayotgan alloma va muhaddis olimlarimizning ilmiy merosi va noyob qo‘lyozma asarlarining o‘zbek, ingliz va arab tillaridagi elektron katalogini yaratish<br> | **Tadqiqotning shakli:** O‘zbekiston musulmonlari idorasi fondida saqlanayotgan alloma va muhaddis olimlarimizning ilmiy merosi va noyob qo‘lyozma asarlarining o‘zbek, ingliz va arab tillaridagi elektron katalogini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- alloma va muhaddis olimlarimizning ilmiy merosi va noyob qo‘lyozma asarlarining ro‘yxati shakllantiriladi hamda tahlil qilinadi;<br>- ro‘yxatga kiritilgan noyob qo‘lyozma asarlarining fan yo‘nalishlari bo‘yicha kesimida taqsimlanadi;<br>- noyob qo‘lyozma asarlarning 3 ta tildagi ilmiy tavsifi tuziladi hamda har bir asarga qisqacha annotatsiya yoziladi;<br>- noyob qo‘lyozma asarlarning katalogi tayyorlanib o‘zbek tilida nashr etiladi;<br>- ilmiy tavsiflar onlayn katalog shaklida O‘zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy saytiga joylashtiriladi;<br>- ba’zi noyob qo‘lyozmalarning ilmiy-izohli tarjimalari amalga oshiriladi;<br>- o‘rganish zarur asarlar aniqlanib, ular borasida xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar e’lon qilinadi;<br>- fondda saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalardan ba’zilarining faksimile nusxasi nashr etiladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari O‘zbekiston musulmonlari idorasida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2700 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 5400 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**

## Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

| “Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | Jurnalistinkaga oid milliy audiovizual kontentlarni raqamlashtirish va ommalashtirish  | **Tadqiqotning shakli:** Jurnalistinkaga oid milliy audiovizual kontentlarni raqamlashtirish va ommalashtirish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- MTRK “Oltin fondi”dagi milliy audiovizual va multimedia materiallar aniqlanadi hamd tahlil qilinadi;<br>- hozirga qadar raqamlashtirilmagan noyob audiovizual va multimedia materiallarni aniqlanadi;<br>- milliy audiovizual mahsulotlarni raqamlashtirish orqali tayyorlangan yili, janr, mavzu, format, radiokanal hamda telekanallarga ko‘ra alohida tartibda ilmiy konservatsiya qilinadi;<br>- raqamlashtirilgan audiovizual kontentni formatiga ko‘ra tizimlashtirilgan bo‘limlardan tashkil topuvchi, har birini izlab topish imkonini beruvchi mobil ilova yaratiladi;<br>- MTRK “Oltin fondi”da saqlanayotgan durdona audiovizual materiallarni (radioeshittirish, teleko‘rsatuv, radiospektakl, telespektakl, telefilm, radioserial, teleserial, videoklip), shuningdek, yoshlar ma’naviyati va madaniyatini yuksaltiruvchi media kontentlarni mualliflik huquqi buzilmagan holda ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashtiriladi va targ‘ib qilinadi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2700 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 5400 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart**